“Davlat gerbi – iftixor ramzi” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi

// 01.07.2022
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-gerbi-igtixor-ramzi

“O‘zkimyosanoat” AJda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan **“Olamni mahliyo aylagan diyor!”** shiori ostida **“Davlat gerbi – iftixor ramzi”** mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda jamiyat markaziy apparati va tarmoq korxonalari mutasaddilari va xodimlari ishtirok etishdi. Shuningdek, mazkur tadbirning yuqori saviyada o‘tishini ta’minlash maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi mas’ul xodimi Ziyodaxon Akbarqulova masofaviy tarzda gerbimiz tarixiga bag‘ishlangan ma’ruzasi bilan qatnashdi.

“Birinchi rezinotexnika zavodi” MCHJ bosh direktori G‘ulomjon Ibragimov kuni kecha bo‘lib o‘tgan Yoshlar kuni bilan “O‘zkimyosanoat” AJ hamda tarmoq korxonalarida faoliyat olib borayotgan barcha yoshlarni samimiy qutladi. Davlatimiz ramzi – gerbimizga bo‘lgan cheksiz hurmatini bildirib o‘tdi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirda “Gerbimizni qanchalik bilamiz?” viktorinasi ham o‘tkazildi. Unda berilgan qiziqarli savollarga “Birinchi rezinotexnika zavodi” MCHJ, “Ammofos-Maxam” AJ va markaziy studiyadan ishtirok etgan apparat xodimlari faollik bilan javob qaytarishdi. Shu bilan birga, davlatimiz gerbiga alohida hurmat ko‘rsatib, ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifasiga joylagan xodimlar ro‘yxati o‘qib eshittirildi.

“Navoiyazot” AJda Davlat gerbiga bag‘ishlangan rasmlar tanlovi o‘tkazilganligi barchaning e’tiborini tortdi. Qolaversa, chizilgan rasmlar monitor orqali tadbir ishtirokchilariga namoyish etildi.

Tadbir yakunida “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari xodimlari tomonidan gerbimizni madh etuvchi, vatanparvarlik ruhidagi she’rlar va qo‘shiqlar ijro etildi.

Kumush Abdusalomova